

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.I.Tuychiyev</b>	
Uzluksiz ta'lim jarayonida o'quvchilarda intizomlik munosabatini shakllantirish .....	119
<b>R.K.Boyqo'zieva</b>	
Milliy madaniy merosimizni o'rganishda talabalar intellektual madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy jarayonlari .....	122
<b>U.L.Kuchkarov</b>	
5-7 Yoshli gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish .....	126
<b>N.A.Niyazova</b>	
Smart-jamiyatga o'tish kontekstida ta'limni axborotlashtirishning zamonaviy ilg'or pedagogik xamkorligi .....	130
<b>S.O'.Boybo'riyeva</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq odobini shakllantirish muammolari .....	137
<b>N.S.Qanoatova</b>	
Talabalarning axborot texnologiyalari vositasida mustaqil ta'lim olishining nazariy-pedagogik asoslari .....	141
<b>O.M.Karimov</b>	
O'quvchilarda badiiy-ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati .....	146
<b>S.A.Qo'chqorov</b>	
Chaqiriqqacha boshlang'ich tayyorgarlik elementlari vositasida talabalarni harbiy xizmatga tayyorlashda vatanga fidoyilik tushunchalarini singdirishning dolzarbligi .....	151
<b>I.A.Imomov</b>	
Zamonaviy yondashuvlar asosida oliy ta'lim jarayonida talabalarda yuzaga keladigan nizolarning pedagogik tahlili .....	156
<b>Sh.Mo'minov, T.Mo'minov</b>	
Notiqlik va vatanparvarlik uyg'unligining lingvokulturopedagogik tadqiqi .....	161
<b>B.X.Baydjanov, N.X.Quziyeva</b>	
Boshlang'ich sinflar o'quvchilarida ijodiy tasavvurni rivojlantirish imkoniyatlari .....	164
<b>D.O'.Yusupova</b>	
Chet tili o'qitishning modellari haqida .....	168
<b>A.I.Soyibnazarov</b>	
O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyatlari va ularni rivojlantirishning falsafiy, pedagogik va psixologik asoslari .....	172
<b>A.M.Toshpo'latov</b>	
Yoshlarni xarbiy xizmatga jismonan chidamlilik ruhida tarbiyalash metodikasi .....	177
<b>Sh.X.Azamov</b>	
Zamonaviy ta'lim jarayonida loyihalash faoliyatini tashkil etish .....	183
<b>A.Tadjibaeva</b>	
Ta'lim jarayonidagi inklyuzivlik teng ta'lim olishni ta'minlash omili sifatida .....	187
<b>F.V.Xalilov</b>	
Talabalar mustaqil ta'limining bugungi holati va uni samarali tashkil etishda didaktik vositalardan foydalanish .....	194
<b>M.M.Kataeva</b>	
Ta'lim jarayonida mobil ta'limning tahlili va tavsiyalar .....	198
<b>E.K.Muxtarov</b>	
Ikki o'lchamli potensial o'radagi zarrachaning kvant holatini modellashtirish .....	203
<b>M.M.Tojiboyev, D.S.Yunusova, M.R.Xursantova</b>	
Mustaqil darslarning asosiy shakllari va tashkil etilishi .....	208
<b>U.Sh.Abduraximova</b>	
Bo'lajak tarjimonlarning lingvomadaniy va kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	212
<b>B.X.Baydjanov, Sh.I.Xolmatova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asarlarni ifodali o'qishga o'rgatish texnologiyalari .....	220
<b>A.U.G'ofurov</b>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarining sport turizmiga tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	224

**TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINING BUGUNGI HOLATI VA UNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISH****СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ И ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ДИДАКТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ЕГО ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ****THE CURRENT STATE OF INDEPENDENT EDUCATION OF STUDENTS AND THE USE OF DIDACTIC MEANS IN ITS EFFECTIVE ORGANIZATION****Xalilov Fayoz Vaxobjonovich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Xalilov Fayoz Vaxobjonovich**– Buxoro muhandislik-texnologiya instituti  
doktoranti**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limni samarali tashkil etish orqali, talabalarga kasbiy kompetentlikni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqotda ta'lim tizimida mustaqil ta'limni tashkil etilganlik holati tahlil etildi. O'qitishning kredit-modul tizimida mustaqil ta'limni tashkil etilganligi, alohida fan tanlab olindi va fan uchun ajratilgan soatlar taqsimoti hamda mustaqil ta'limni bajarishda zamonaviy didaktik vositalarni qo'llash bo'yicha ma'lumotlar keltirildi. Bundan tashqari mustaqil ta'limni tashkil etishda zamonaviy o'qitish platformalarini didaktik vosita sifatida qo'llash bo'yicha tavsiya keltirilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье основное внимание уделяется развитию профессиональной компетентности студентов посредством эффективной организации самостоятельного обучения в системе высшего образования. В проведенном научном исследовании проанализировано состояние организации самостоятельного обучения в системе образования. Информация об организации самостоятельного обучения в кредитно-модульной системе собиралась путем выделения отдельного предмета и с учетом распределения часов, отведенных на предмет, а также использования современных дидактических средств при осуществлении самостоятельного обучения. Дополнительно даны рекомендации по использованию современных обучающих платформ в качестве дидактического инструмента в организации самостоятельного обучения.*

**Abstract**

*This article focuses on the development of professional competence of students through the effective organization of independent learning in the higher education system. In the conducted scientific research, the state of organization of independent learning in the educational system was analyzed. Information on the organization of independent learning in the credit-module system was gathered by selecting separate subject and taking into account the distribution of hours allocated for the subject, as well as the use of modern didactic tools in the implementation of independent learning. Additionally, recommendations on using modern teaching platforms as a didactic tool in the organization of independent learning are given.*

**Kalit so'zlar:** ta'lim, kompetentlik, mustaqil ish, yuklama, kredit, kredit tizimi, mutaxassis, didaktik vosita, platforma**Ключевые слова:** образование, компетентность, самостоятельное обучение, учебная нагрузка, кредит, кредитный модуль, специалист, дидактический инструмент, платформа.**Key words:** education, competence, independent learning, workload, credit, credit-module, specialist, didactic tool, platform**KIRISH**

Ta'lim tizimini to'g'ri va samarali tashkil etish mamlakat kelajagining asosiy poydevori hisoblanadi, shunday ekan mamlakatning yuksalishi, rivojlanishi ta'lim tizimining qay darajada yo'lga qo'yilganligi bilan ahamiyatlidir. Ta'lim tizimini isloh qilish orqali mamlakatni rivojlantiribgina qolmay, balki dunyo mamlakatlariga kadrlarni eksport qilish ham mumkin. Jamiyat iqtisodiyotining erkinlashuvi, ijtimoiy va siyosiy munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarish uchun avvalo, ta'lim tizimini yaxshilash zarur. Shuning uchun ham mamlakatimizda ta'lim tizimiga taraqqiyotning ustuvor yo'nalishi deb yondashiladi.

Har yili mamlakatimiz budjetidan ta'lim sohasiga turlicha mablag'lar ajratilganligiga va ushbu ajratilayotgan mablag'lar yil sayin ortib bormoqda. Agar 2021 - yilda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga davlat budjetidan 2,9 trillion so'm, Xalq ta'limi vazirligiga 22,1 trln so'm ajratilgan bo'lsa, 2022 - yilda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga 4,1 trln so'm, Xalq ta'limi vazirligiga esa 25,8 trln so'm ajratilgan<sup>5</sup>.

Ajratiladigan mablag'lar to'g'ridan – to'g'ri ta'lim tizimining rivoji uchun sarflanmoqda, jumladan yangi OTMlarning qurilishiga, mavjud OTMlarning o'quv korpuslari va talabalar uchun yotoqxonlar

<sup>5</sup> <https://daryo.uz/k/2022/12/30/ozbekistonda-talim-sohasining-bugunqi-holati-tahlil-qilindi>

## PEDAGOGIKA

qurilishiga yoki qayta rekonstruksiya ishlariga, yangi zamonaviy laboratoriya uskunalari, yangi adabiyotlar xarid qilinishiga, umuman olganda yuqoridagi mablag'lar ta'lim sohasining rivoji uchun barcha jabhalarga yo'naltirilmoqda. Hukumatimizning ta'limni rivoji uchun barcha imkoniyatlarni yaratib berishi mumkinligini ajratilgan mablag'lardan ham ko'rish mumkin.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida dunyo hamjamiyatida yuz berayotgan tub o'zgarishlar va texnik – texnologik rivojlanish ta'lim tizimidan haqli ravishda sifat jihatdan yangi natijalarni talab etmoqda.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Bugungi kun talabi yuqori malakali, kompetentli kadrlar tayyorlashga qaratilar ekan, endi nimani o'qitishni ta'lim muassasalari emas, balki buyurtmachi hal qiladi. Ijtimoiy buyurtmalar va iste'molchilarning fikrlari, mehnat bozoridagi ehtiyoj, bitiruvchi kompetentsiyasining ishlab chiqarish talablariga mosligi, shuningdek, ta'lim muassasasi rivojlanishining ichki faktorlari tahlilini doimiy ravishda olib borish kerak. Boshqacha qilib aytganda, buyurtmachi kompetentli mutaxassisni tayyorlab berishni talab etadi va bu jarayon o'z novbatida ta'lim muassasalari professor – o'qituvchilari zimmasiga yangi vazifalarni yuklaydi [1].

Professor – o'qituvchilar talabalarga bilim berish, ilmga yo'naltirishda auditoriyada beriladigan ta'lim bilan cheklanib qolishmoqdalar. Chunki talabalar auditoriyadan tashqarida bajarilishi kerak bo'lgan o'quv soatlari yoki boshqacha aytganda mustaqil ta'lim soatlari amalda aksariyat hollarda bajarmayapti.

Mamlakatimizning ko'plab pedagog olimlari mustaqil ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha juda ko'plab izlanishlar olib borishgan jumladan:

Mamlakatimiz pedagog olimlaridan T.T.SHOymardanov, N.Sayidahmedov, P.T.Magzumov, O.X.To'raqulov, A.R.Xodjaboev, R.Mavlonova, U.N.Nishonaliyev, E.T.CHoriev, O.A.Qo'ysinov va boshqalar o'z tadqiqotlarida talabalar mustaqil ta'limining tashkiliy va metodik asoslari borasida fikr yuritganlar.

Mustaqil ta'limni tashkil qilishni pedagogik muammo sifatida T.R.Niyazmetova, R.Saidova, A.I.Axmedov, B.M.Turdibaeva, O'.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipov, Z.Nishonova, J.Tolipova, N.Xalilov, S.Matchanov va boshqalar o'z ishlarida tadqiq qilishgan.

Talabalar mustaqil ishlarini samarali tashkil etishda didaktik o'quv vositalaridan foydalanish bo'yicha dunyo olimlaridan V.P. Bepalko, N.V.Bordovskaya, L.Ya.Zorina, Yu.G.Tatur, N.L.Shubina, N.E.Erganova va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. [6].

Biroq, ushbu muammoga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "mustaqil ish" tushunchasining mohiyati to'g'risida hanuzgacha bir fikrga kelinmagan va uning mohiyati to'g'risida hanuzgacha yakdil fikr mavjud emas.

R.J.Ishmuhamedov, A.A.Abduqodirov, A.Pardaev ta'kidlaganidek, ta'limning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot – ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat olib borishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur [2].

Mustaqil ish tushunchasini mazmun – mohiyatini ochib berishda turli yondoshuvlar mavjud. Jumladan, mustaqil ish o'qitish metodi (A.G.Kovalev, A.I.Bushley, I.V.Kuzmin, I.Ya.Lerner), o'qitishni qabul qilish (A.V.Usova), talabalar faoliyatini tashkil etish shakli (B.P.Esipov, V.A.Shchenev), o'quv vositasi va o'quv va ilmiy bilish shakli (P.I.Pidkasistiy, E.L.Belkin) sifatida belgilangan.

Ancha to'liq ta'rifni P.I.Pidkasistiy beradi. U ta'rifni quyidagicha qayd etadi: "Oliy ta'limdagi mustaqil ish – bu ta'lim jarayonidagi mustaqil faoliyatni tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos pedagogik vositasi", deb hisoblaydi [3]. U "mustaqil ish" tushunchasini didaktik hodisa deb biladi, uning ikkilamchi qobiliyatida harakat qiladi.

Mustaqil ish ta'lim beruvchi tomonidan belgilangan ko'rsatma asosida bajariladigan ish yoki yangi bilimlarni egallash va kerakli ko'nikmalarga ega bo'lishdir. Mustaqil ishlarning o'ziga xos shakli, mohiyati mavjud.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Mamlakatimizdagi barcha oliy ta'lim muassasalari kredit-modul tizimi bo'yicha o'z faoliyatini olib borishmoqda.

Kredit-modul tizimi, bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlamasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish

serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limiga juda katta e'tibor berilgan. Oliy ta'lim tizimida tahsil oluvchi talabalarning o'quv mashg'ulotini (*"Kompyuter tizimlari va tarmoqlari"*) fan misolida tahlil etib ko'ramiz.

Misol uchun *"Kompyuter tizimlari va tarmoqlari"* fani uchun jami 150 soat ajratilgan bo'lsa, unda auditoriya mashg'uloti uchun 60 soat, mustaqil ta'lim uchun 90 soat yuklama taqsimlangan. Ushbu fan uchun 5 kredit ajratiladi va kredit tizimi orqali baholanadi.

Barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishida 4 yil tahsil oladigan talaba umumiy 240 kredit yoki 7200 soat o'quv yuklamani bajarishi lozim. Umumiy soatdan kelib chiqqan holda 1 kredit o'quv yuklamaning 30 soatiga tenglashtirilgan. Umumiy o'quv yuklamaning 40% o'quv auditoriya soatini tashkil etsa, 60% mustaqil ta'limni tashkil etadi. Bundan kelib chiqadiki, umumiy 7200 soatning 60% ya'ni 4230 soat mustaqil ta'lim uchun ajratilgan.

Olib borilgan o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, ba'zi OTMLarida o'qituvchilar yoki talabalar asosan auditoriya mashg'ulotlari uchun ajratilgan yuklama soatlari bilan chegaralanib qolmoqdalar, ya'ni mustaqil ta'lim soati uchun ajratilgan yuklama bajarilmay qolmoqda.

Bu nimani anglatadi? Bu nimaga olib keladi?

Buyurtmachilar tomonidan zamonga mos, raqobatbardosh, kompetentli mutaxassisga qo'yilgan talablarni bajarish uchun, ta'lim muassasalarining auditoriya mashg'ulotlarida berilgan bilimlarning o'zi albatta yetarli emas, balki auditoriyadan tashqari mustaqil ta'limni mustahkam o'zlashtirish orqali nostandart holatlarda uchraydigan turli masalalarni tahlil eta olish, qaror qabul qilish qobiliyatlarini shakllantirishga erishish lozim.

Buning uchun talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda turli xil zamonaviy texnologiyalarni didaktik vosita sifatida tizimga joriy etish kerak, ayniqsa muhandislik yo'nalishlariga.

Zamonaviy axborot – texnologiyarni ta'lim tizimga qo'llashdan oldin ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilarning informatsion madaniyatini shakllantirishimiz kerak, ya'ni talim platformalari didaktik vosita sifatida qo'llanilar ekan, o'qituvchilar ta'lim platformalariga fan bo'yicha ma'lumotlar (ma'ruza, prezentatsiya, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, nazorat savollari, testlar va boshqalar) taqdim etishlari hamda tahlil eta olish kabi bilimlarga ega bo'lishlari zarur. Talabalarga ham ta'lim platformalaridan foydalanishda o'ziga xos madaniyat shakllantirilishi lozim, misol uchun tizimga kirish uchun login va parolni o'zida saqlashi, fanlarni o'zlashtirish va berilgan topshiriqlarni bajarishda o'zining bilimlariga tayanishi va boshqlar.

Ta'lim tizimiga zamonaviy o'itish platformalaridan didaktik vositasi sifatida keng foydalanib kelinmoqda, ushbu texnologiyalarga misol uchun MOODLE tizimi, HEMIS tizimi, Google for Education, Coursera, Udemy va boshqa o'nlab tizimlar mavjud.

Har bir tizim o'ziga xos funktsionallikka ega. Bu tizimlar talabalarga yoki jamiyatga nima beradi degan savolga, quyidagicha izoh qoldiraman:

- Tizimlarning barcha turli operatsion tizimlarda qo'llab quvvatlanishi;
- Barcha tizimlarning mobil versiyalari mavjud;
- Talabaning ta'lim olishdagi vaqtini tejaydi;
- Tizimda ishlash uchun muayyan joy talab etilmaydi;
- Axborotlarni istalgan vaqtda ko'rish, o'zlashtirish, yoki fanga doir nazoratlar va topshiriqlarni bajargan holda tizimga yuklash imkoni mavjud;
- Ko'p beriladigan savollar bo'limini tashkil etish va unda izohlar yozishga imkon berish;
- Talaba va o'qituvchilar ushbu tizimlar orqali mobillikka ega bo'ladi;

O'itish platformalarida yil sayin fan bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlar jamlanadi, yangilanadi va ma'lumotlar bazasini hosil qiladi. Talabalar tomonidan eng to'g'ri bajarilgan topshiriq va nazoratlarning bajarilganligi esa bilimlar bazasiga aylanadi.

Bilimlar bazasi – aniq bir predmet sohasi bo'yicha dalillar va qoidalar shaklida rasmiylashtiriladigan bilimlar to'plami.

Bilimlar bazasidan didaktik vosita sifatida foydalanish, talabalarga ma'lumotlarni tezkorlik bilan izlab topishga, berilgan topshiriqlarni bajarish va o'zlashtirish uchun yangi ma'lumotlarni taqdim etishi hamda muammoli vaziyatlarni yechishda eng maqbul qarorlarni qabul qilishga ko'maklashadi.

Bilimlar bazasi – ekspert tizimlarining yadrosi hisoblanadi.

Ekspert tizimi – bu ba’zi bir predmetli sohadagi murakkab vazifalarni yechish uchun bilimlarni tashkil qilish, jamlash va qo’llash usullari va vositalari majmuasi. Ekspert tizimi mutaxassislar guruhining yuqori malakali tajribasiga suyangan holda qarorlarni tanlab olishga erishadi.

Ekspert tizimining asosi qarorlar qabul qilish jarayonini shakllantirish maqsadlarida bilimlar bazasining jamlanmasidan iborat.

Yana ta’lim tizimiga yangi metodikalardan “Smart” texnologiyalarni qo’llash zamonaviy o’qitishning yangi vositasi hisoblanadi [4]. Talabalar ko’p, topshiriqlar esa undanda ko’p, ammo ularning olgan bilimlarni nazorat qilish uchun o’qituvchilarning vaqti ham, imkoniyati ham kam. Shunday ekan yangi zamonaviy o’qitish metodikalarini, laboratoriya uskunalarini ko’paytirish hamda adabiyotlarning yangi avlodlarini tizimga kiritish foydadan xoli bo’lmaydi.

### XULOSA

Xulosa o’rnida F.A. Disterveg o’quvchilarni aqliy kuchlarini rivojlantirish bo’yicha bergan fikrini keltirib o’tmoqchiman: “Rivojlanish va ta’lim hech bir insonga berilishi va yetkazilishi mumkin emas. Har kim bunga shaxsiy faoliyati bilan erishishi kerak. Inson o’zining mustaqil yo’l bilan egallamagani - uniki hisoblanmaydi”, deb fikr bildirgan [5]. Ushbu fikrdan shuni anglab yetish mumkinki, har bir inson o’z ustida doimiy ravishda o’qib o’rganishi, izlanishi, va o’z ustida juda qattiq mehnat qilishi kerak, xoh u ta’lim beruvchi bo’lsin, xoh ta’lim oluvchi.

Ta’lim samaradorligiga, sifatiga, bo’lajak mutaxassislarning kompetentligini rivojlantirish uchun eng avvalo o’qitishda zamonaviy didaktik vositalarini joriy etish lozim.

Ta’lim yo’nalishning malaka talablarini to’liq bajarilishi ta’minlash uchun, albatta talabalarning mustaqil ishlarini bajarilishini yangi mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Auditoriyada beriladigan ta’lim bilan chegaralanadigan bo’lsak teran fikrlaydigan, zarur hollarda qaror qabul qila oladigan kadrlarni tayyorlash juda qiyin masala bo’ladi, shuning uchun ham mustaqil ishlarni samarali tashkil etish, mazmuni, shaklini qayta ko’rib chiqish va turli zamonaviy texnologiyalarni qo’llash tavsiya etiladi.

Ya’ni:

- Mustaqil ishlarni rejalashtirish, nafaqat uning maqsadi, mazmuni, shakllari, metodlari va bajarish muddatini nazarda tutadi, balki uni bajarishning asoslangan normativ – kredit birligini ham inobatga olishi kerak;

- Mustaqil ishlarning mazmuni, uning tashkiliy-uslubiy ta’minotidan kelib chiqqan holda turli forma va metodlardan foydalanishni nazarda tutishi, o’quv topshiriqlarining variativ xarakterga ega bo’lishini ta’minlashi kerak;

- Mustaqil ta’lim jarayonida talabalarning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim;

- Zamonaviy o’qitish platformalaridan didaktik vosita sifatida foydalanishda, yuqori malakali, tajriba ega ishlab chiqarish xodimlarni jalb etish yoki fan spetsifikatsiyasidan kelib chiqib, chet el OTMLarida tahsil beradigan pedagoglarning ishtirokini ta’minlash.

Yangi bilimlarni o’zlashtirish, doimiy ilmiy tahlillarni kuzatib borish lozim. Shundagina, kompetentli mutaxassislar turli vaziyatlarda uchrashi mumkin muammolarni yechishda kerakli qarorlarni qabul qila olishadi.

### ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Khojiev A.K., Formation of knowledge independence of student as a pedagogical problem, Web of Scientist: International Scientific Research Journal: Vol. 3 No. 10 (2022)

2. Ishmuhamedov R.J., A.A.Abdugodirov, A.Pardaev. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). –T.: Iste’dod, 2008. -180b. (Ishmuhamedov R.J., A.A.Abdugodirov, A.Pardaev. Innovative technologies in education (practical recommendations for pedagogues-teachers of educational institutions). - T.: Iste’dod, 2008. -180p.)

3. Пидкасистый П.И. Педагогика. Учебное пособие/- М.: Высшее образование, 2006–432 с.( Pidkasty P.I. Pedagogy. Textbook / - M.: Higher education, 2006–432 p.)

4. U.M.Ibragimov, Z.R.Xo’janazarov Bo’lajak muhandis-kadrlarni masofaviy o’qitish natijalarini “smart” texnologiyasi yordamida baholash. – 2021 yil, 370-375 b. (U.M.Ibragimov, Z.R.Xo’janazarov Evaluation of the results of remote training of future engineers using "smart" technology. - 2021, 370-375 p)

5. И.П.Подласый. Педагогика. М., «Владос». 2007. (I.P.Podlasiy. Pedagogy. M., "Vlados". 2007)

6. С.С. Рахматов., Использование дидактических возможностей информационных технологий в учебном процессе. Информационно-коммуникационные технологии: достижения, проблемы, инновации (икт-2022), 2022 г. С. 198-201 с. (S.S. Rakhmatov., The use of didactic possibilities of information technologies in the educational process. Information and Communication Technologies: Achievements, Challenges, Innovations (ICT-2022), 2022, pp. 198-201 p)